

1950-1970-YILLARDA O`ZBEKISTON ME`MORCHILIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10932987>

Tuxliboyev Bahodirjon Sotqinovich

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti "Arxitektura va qurilish" kafedrasida katta o'qituvchisi

Shovvozova Manzura Yorqinbekqizi

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti talabasi
manzurashavazova@gmail.com

Annotatsiya

Tarixiy materializm qadimiy yodgorliklarni qunt bilan arxitekturani o'rganishga, shuningdek, har bir vaqtni mutonosibligini to'g'ri tanlash arxitektura tarixida turli davrlar hajmini to'g'ri o'zlashtirish lozim. Ushbu maqolada O'zbekistonning XX asrning ikkinchi yarmidagi me'morchiligi to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar

shaharlar, me'morchilik, madaniyat, saroy, arxitektura, muzey, metropolitan, turar-joy.

ARCHITECTURE OF UZBEKISTAN IN THE 1950S-1970S

Tukhliboev B.S

Andijan Institute of Economics and Construction, senior lecturer

Shovvozova Manzura Yorqinbek's daughter

Andijan Institute of Economics and Construction, student
manzurashavazova@gmail.com

Annotation

Historical materialism is necessary to carefully study the architecture of ancient monuments, as well as to correctly choose the proportion of each time, to correctly master the size of different periods in the history of architecture. This article talks about the memory of Uzbekistan in the second half of the 20th century.

Key words

cities, architecture, culture, palace, architecture, museum, metropolitan, residential.

.

АРХИТЕКТУРА УЗБЕКИСТАНА 1950-1970-Х ГОДОВ.

Тухлибаев Баходир Саткинович

старший преподаватель Андижанского института экономики и строительства.

Шоввозовой Манзуры Йоркинбековна.

Андижанский институт экономики и строительства, студентка

manzurashavazova@gmail.com

Аннотация

Исторический материализм необходим для того, чтобы внимательно изучать архитектуру древних памятников, а также правильно выбирать пропорции каждого времени, правильно осваивать размеры разных периодов истории архитектуры. В данной статье говорится о памяти Узбекистана во второй половине 20 века.

Ключевые слова

города, архитектура, культура, дворец, архитектура, музей, митрополит, жилой дом.

1940-yillarning ikkinchi yarmidan shaharlarda katta maydon, keng ko'chalar yaratishga ahamiyat berilgan. Toshkentda Navoiy, Usmon Yusupov, Furqat ko'chalari, Xadra, Komsomol, Teatrmaydonlari bunyod qilingan. 1950-yillarda klub, kinoteatr, madaniyat saroylari qurilishida milliy me'morchilik an'analardan (galereya, terrasa) foydalanilgan.

1950-yillarning ikkinchi yarmidan turar-joylar qurilishi keng ko'lamda davom ettirilgan. Toshkentning janubi-sharqiy qismida Chilonzor turar-joy massivi vujudga kelgan, keyinroq, boshqa turar-joy massivlari ham qurilgan. Turar-joy massivlari Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Andijon va boshqa shaharlarda ham bunyodetilgan. Andijon, Namangan drama teatrlari, Samarqand opera va balet teatri qurilgan. Chirchiq, Yangiyo'l, Angren, Yangiyer, Olmaliq kabi yangi shaharlarida ham ko'p qavatli turar-joylar barpo qilingan.

1950-yillarning ikkinchi yarmi, 1960-yillarning boshlarida Toshkentda «Toshkent» mehmonxonasi (1956), hozirgi Prezident devoni kompleksining eski binolari, Markaziy univermag, 2300



tomoshabinga mo'ljallangan San'at saroyi (1962-1964), «Paxtakor» stadioni barpo etilgan. Boshqa shaharlarda ham ma'muriy, madaniy-maishiy xizmat binolari, oily o'quv yurtlari, maktablar, kasalxona, poliklinika binolari, savdo markazlari qurishishlariga e'tibor kuchaygan. 1960-yillarda barpo etilgan Navoiy, Zarafshonshaharlaridako'pqavatliuylaratrofiniko'kalamzorlashtirishgaalohidaaha miyatberilgan (Navoiyshahrihududining 60 foiziniko'kalam joy, ko'l, bog'lartashkilqiladi).



1960-1970-yillarda qurilishda yangi konstruksiyalar, yangi qurilish materiallaridan foydalanilgan, binolar monumentallashtirilgan milliy an'analar zamonaviy arxitektura shakllari bilan uyg'unlashtirilgan. Monumental san'at asarlari (haykaltaroshlik, devoriy rasm, naqsh, koshin va parchindan hosil qilingan tasvirlar) bilan arxitekturasini teziga

erishilgan.

1960-yillarda bunyod etilgan Toshkent yirik panel uysozlikkombinati, Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Chirchiq, Farg'ona uysozlik kombinatlari qurilishda progressive metodlarga o'tishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Turar-joylarni tipovoy loyihalar asosida qurishga ahamiyat berilgan.

1966-yilda Samarqand me'morchilik va qurilish institute ochilgan va u ham mamlakatimizga iqtidorli arxitektor kadrlar va muhandis-quruvchilar yetkazib berishga o'z hissasini qo'sha boshlagan.

1966-yilgi Toshkent zilzilasi keyin shaharni tiklash va qurishda arxitektura yutuqlaridan, jumladan milliy uslublardan keng foydalanilgan. 1967-yilda shaharning yangi bosh rejasi tasdiqlangan. Respublika arxitektorlari, binokorlari, ayniqsa Toshkent markazini loyihalash va qurishda o'z mahoratlarini namoyish etganlar. Markaz 1966-1974-yillarda barpo etildi. Toshkentda poytaxtning bosh maydoni yaratilgan. U maydon poytaxtning turli namoyishlar o'tkaziladigan joyi bo'lgan. 1956-yilgacha «Qizilmaydon» deb atalgan.

XIX asrning 60-yillarida Anhor yoqasida Turkiston general gubernatorlari qarorgohi «Oquy» qurilgan. 1920-yillardan keyin «Oquy» muzeyga, harbiy maydon esa miting, parad va namoyishlar maydoniga aylantirilgan. Toshkent zilzilasidan soʻng bu bino Alisher Navoiy nomidagi kutubxona, «Bahor» konstert zali va maʼmuriy binoga aylantirilgan edi. Hozirgi paytda u binolarning oʻrniga davlatimizning Senat binosi qurilib, foydalanishga topshirilgan.



Poytaxtning Bosh maydoni tubdan yangilandi, maydon hududi xalqning dam olish zonasiga aylantirildi. Maydonning bosh darvozasi sharq tomonda joylashgan. Maydonning janubida Vazirlar mahkamasi, gʻarbida Senat binolari, shimoliy tomonida esa Motamsaro ona haykali va ikkinchi jahon urushida qahramon ona halok boʻlgan oʻzbekistonliklar xotirasiga bagʻishlangan meʼmoriy yodgorlik bunyod etildi.

Markazda qurilgan koʻpgina binolar orasida muzey (1970), vazirliklar joylashgan avvalgi 19 qavatli vazirliklar binosi. (2006–2007-yillarda yangidan rekonstruksiya qilinib, bir necha qavatli olib tashlandi va badiiy ifodasi bilan Bosh maydonga uygʻunlashtirildi), Matbuot uyi, maʼmuriy bino (1999-yilda rekonstruksiya qilinib, zamonaviylashtirilgan hozirgi Vazirlar mahkamasi binosi), «Zarafshon» restorani diqqatga loyiq.

Toshkentda yangi prospektlar, maydonlar, rekonstruksiya qilingan bosh maydon atroflarida 4 qavatli turar-joylar, koʻp qavatli jamoat binolari bilan bir qatorda 9 qavatli turar-joy binolari, koʻp qavatli maktab, bolalar bogʻchalari va

yasllari, mehmonxonalar («O'zbekiston», «Turon»), sirk, bosh univermag va boshqalar qurilgan. Farg'onada markaziy univermag, Samarqandda «Inturist» mehmonxonasi, Navoiyda « O'zbekiston» kinoteatri. «Flora» restorani, Buxoroda pedagogika instituti, mehmonxona binosi va hokazolar barpo etilgan. Me'morchilik bir muncha taraqqiy qilgan qurilishda estetik sifatga ahamiyat berilgan.

1977-yil 7-noyabr arafasida foydalanishga topshirilgan Toshkent metropolitenining bekatlari arxitekturasi va badiiy bezalishida monumental dekorativ va amaliy san'atning milliy an'analari o'z aksini topgan.

Keyingi yillarda tasviriy san'atda turli badiiy uslublar kuchaydi. Monumental jamoat binolari va turar-joylar qurilishining keng ko'lamda davom ettirilishi, binolarning estetikasiga nisbatan oshgan talab arxitektorlar bilan rassom, haykaltaroshlar hamkorligi kuchavishini taqozo etdi. Maydonlar haykallar bilan, yirik binolarning fasad va intererlari rassomlik, haykaltaroshlik asarlari, naqshlar bilan bezatildi, ayrim yirik eski binolar rekonstruksiya qilindi va bezatildi (masalan, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi binosi). Rassomlar arxitektorlar bilan hamkorlikda ishlab yaratgan mozaik panno, devoriy rasmlar ko'pgina binolarni serhasham qildi. Qadimdan xalq ijodining keng tarqalgan sohasi – o'ymakorlik (ganch, yog'och, tosh, qismansuyako'ymakorligi) davr talabiga muvofiq yangi namunalar bilan boyitildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Me'morchilik tarixi 1-qism M. M. Vaxitov. Sh. R. Mirzayev1. Vyatkin V. L. Afrasib qadimiy manzilgohi. Ed. O'zSSR Xalq ilmiy-tadqiqot institutining asosiy fanlari, Toshkent. 1927 yil.
2. Grigoryev G.V.Tali-Barzu qadimiy manzilgohi. Sharq madaniyati va san'ati tarixi kafedrasi materiallari. Davlat Ermitaj, Leningrad, II jild, 1940 yil.
3. Terenojkin A.I.Sosoniylar taomining relyefi va Xorazm me'moriy yodgorliklari. «San'at», 1939 yil, 2-son.
4. Terenojkin A.I.Toshkent yaqinidagi Oqtepa qazishmalari.
5. Bachinskiy N.I.Turkmaniston arxitektura yodgorliklari, v. 1, Moskva - Ashxobod, 1939 yil.